



O'ZBEK MATNSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK
MATNSHUNOSLIGINING DOLZARB
MASALALARI

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

2025-yil 10-oktabr

QARSHI
“ILM-FAN-MA’NAVIYAT” NASHRIYOTI
2025



Ushbu ilmiy to'plam O'zbekiston Respublikasi Olin ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27-dekabrdagi "2025 yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 490-sonli buyrug'i 1-ilovasiga muvofiq 2025 yil 10 oktabr kuni Qarshi davlat universitetida "O'zbek matnshunosligining dolzarb masalalari" mavzusida respublika miqyosidagi bo'lib o'tadigan ilmiy-amaliy anjuman tezislari iborat.

Anjuman materiallarida hozirgi o'zbek matnshunosligining muhim nazariy va amaliy muammolari muhokama qilingan.

Mas'ul muharrir

Sh.Nuriddinov,

filologiya fanlari doktori, dotsent

Tahrir hay'ati:

R.Jumayev	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent</i>
B.Rizayev	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent</i>
G'.Shodmonov	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent</i>
Z.Namozova	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent</i>
U.Abdullayeva	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent</i>
M.Rayhonova	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent</i>
O.Avaznazarov	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent</i>
Sh.Akramov	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent</i>
F.Qiyomov	<i>o'qituvchi</i>
J.Ismatullayev	<i>tayanch doktorant</i>
Sh.Izmurodova	<i>tayanch doktorant</i>

Taqrizchilar:

N.Shodmonov, filologiya fanlari doktori, professor

Q.Pardayev, filologiya fanlari doktori, professor

Maqolalarda keltirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

MUNDARIJA

T/r	Muallifning ismi, sharifi	Maqola nomi	Sahifa
	D.X.Nabiyev	Adabiy meros ma'naviy yuksalishda muhim omil	3
<i>I-SHU'BA. MUMTOZ ADABIYOT MATNSHUNOSLIGI MUAMMOLARI</i>			
1	N. Jabborov	Matnshunoslik nazariyasiga doir ayrim mulohazalar	5
2	N. Shodmonov	"Yusuf va Zulayxo"ning nodir qo'lyozmalari: muallif muammosi tahlili	15
3	Q. Pardayev	Muqimiy asarlari manbalarida yashiringan haqiqat	26
4	H. Eshonqulov A. Hamidov	"Badoyi' ul-bidoya" devoni g'azallardagi muallif tahririning ahamiyati	35
5	Sh. Nuriddinov U. Abdullayeva	Adabiy matnlarda kotib tahriri masalasi	39
6	Sh. Amonov	Ahmad Tabibiy devonining Ozarbayjon nusxasi haqida	53
7	F. Karimova	Boborahim Mashrabning munosib izdoshi	58
8	N. Bekova, Z. Komilova	Devon Imloyi Buxoriy: adabiy va ma'naviy meros	63
9	A. Muhammadiyev A. Mahmudov	Alisher Navoiy "Xamsa"sining keshlik kotib tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma nusxasi	66
10	O. Ravshanov	Hofiz Ro'ziboy Mashrab adabiy merosi	79
11	Z. Shukurova	Bayoz taraqqiyotida Qo'qon bayozchilik maktabining o'rni	84
12	Sh. Kaxxorova	Alisher Navoiy g'azallarida baqo talqini	94
13	A. Arslonov	Payg'ambarlar tarixi va qissalari: vujudga kelish omillari, tadriji va tamoyillari	102
14	S.Do'stova	Muhammad Yusuf Bayoniy hayoti haqida qo'lyozma	113
15	G'.Shodmonov, Sh.Akramov	Fuzuliy g'azallariga Munis muxammaslarining matniy tadqiqi	117
16	O. Avaznazarov	Navoiy matnshunosligiga doir ba'zi muammolar	126
17	Sh. Qorayev	Manbalarda Xoja Bahouddin Naqshband ilmiy va adabiy suhbatlarining yoritilishi	135
18	D. Abduvaliyeva	"Nahjul-farodis" asaridagi oshxona buyumlari nomlarining tarixiy-etimologik tadqiqi	145
19	T. Shaymardonov	Siddiqiy-Ajziyning "Oyna" jurnalidagi faoliyati	149
20	L. Ahmadaliyev	"Xamsa" tarkibidagi dostonlarni umumlashtiruvchi omil	156
21	M. Rayxonova B. Rizayev	Matnshunoslikda muallif tahriri muammosi	162
22	S. Shodiyeva	Salohiddin Salohiy asarlari qo'lyozma nusxalarining ilmiy tavsifi	168
23	S. Muxamedxodjayeva	Alloma Zamaxshariyning axloqshunoslikka oid asari va uning qo'lyozma va toshbosma nusxalari	174
24	M. Maxamatxonova	Devona Andalibning "Shohnoma"si	182
25	A. Latipov	Turkiy "Nazmi aqoid" nusxalari va muallifi haqida	186
26	S. Fayzullayeva	Aziziyning Navoiy g'azaliga bog'lagan muxammasi xususida	192
27	H. Abduxaliqova	"Rohati dil" dostonining o'zbek tasavvuf adabiyotida tutgan o'rni	196
28	M. Maxsumov	Nafs va ruhiy yetuklik haqida Qur'on hikmati	200
29	M. Axmedova	"Qisasi Rabg'uziy" – agiografik adabiyot durdonasi	206
30	R. Jumayev J. Ismatilloev	Munis Xorazmiy qasidalarining o'rganilishi	211
31	N. Karimova	Alisher Navoiy va mumtoz adabiyotda hamd g'azallarining badiiy va islomiy-irfoniy jihatlari	214



32	Sh. Yangiboyev	“Ilk devon” va “G’aroyibu-s-sig’ar” g’azallarining muqoyasasi	220
33	M. Jo’rayev	Hadislarda matn tanqidining nazariy va amaliy asoslari	226
34	Sh. Izmurodova	Muso alayhissalom obrazini tadqiq etishda litografik manbalarning ilmiy ahamiyati	240
35	M. Nurutdinova	Mahbuba Qodirovaning Nodira asarlarini nashrga tayyorlashda matnshunoslik mahorati	244
36	X. Meyliyev	Temuriylar Tabrizi adabiy muhiti va Mironshoh Mirzo saroyi nadimlari (Davlatshoh Samarqandiy va uning zamondoshlari asarlari ma’lumotlari asosida)	249
37	F. Qiyomov	Chig’atoy tili lug’atshunosligining rivojida Shayx Sulaymon Buxoriyning hissasi: tarixiy manba tahlili asosida	253
38	M. Bobomurodova	Lutfiy devoni Parij nusxasidagi fardlarning matniy tadqiqi	257
39	M. Usmonova	Sharq mumtoz adabiyotida bahri tavil janri: matn va tadqiq	262
40	M. Boysoatov	Alisher Navoiy “Arba’in” asari nusxalari va nashrlari xususida	266
41	Y. Amonov	Abdurahmon Jomiyning tasavvufdagi “Lavoyih” risolasining tuzilishi va uning qisqacha mohiyati	269
42	Z. Nizomjonova	“Vasilatu-n-najot” asarining badiiy-ma’rifiy qimmati to’g’risida	274
43	M. Shomurodova	Munis Xorazmiy va uning “Savodi ta’lim” asarida arab harflari tasviri	278
44	G. Avg’onova	Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron” tazkisasi va Po’lotjon Qayyumovning “Tazkirayi Qayyumiy” asarida o’xshash hamda farqli jihatlar	286
45	A. Jo’rayev	Roqim ijodida yor timsoli	290
46	M. Malikova	Navoiy fardlari matnshunosligida manba va izohlar muammosi	293
47	M. Bobomurodova	Ilmiy va adabiy manbalarda Lutfiy ijodi to’g’risida ayrim qaydlar	297
48	Z. Nizomjonova	“Mavludi sharif”dagi hikoyatlarning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati	300
49	Sh. Elbekova	Ahmadjon Tabibiy fardlarining badiiy mohiyati	308
50	A. Mahmudov	O’zbek matnshunosligining tarixiy rivoji va zamonaviy tadqiqot yo’nalishlari	313
51	I. Samatova	Sharq tazkirachilik an’analarida “Boburnoma”ning tutgan o’rni	317
52	D. Guliyeva	“Devoni Rog’ib”dagi bir g’azal tabdili va badiiy tahlili	321
53	N. Jo’rayeva	Manbalarda Mirzo Bobur huzuridagi adabiy kechalar tarixi	324
54	F. Abdurahmonova	Navoiy qalamiga mansub janrlar va asarlar matnini tabdil qilishning ahamiyati	330
55	F. Zokirova	Muhammad Alixon devoni: milliy qadriyatlar va adabiy meros chorhasida	335
56	M. Ne’matullayeva	“Hayrat ul-abror” dostonida quyosh tasviri	341
57	M. Haydarova	Gadoiy devonining nashrlari xususida	346
2-SHU’BA. YANGI O‘ZBEK ADABIYOTI MANBALARINI TADQIQ QILISH MASALALARI			
58	G. Imomova	Badiiy matnda nutq – individuallashtirish vositasi	349
59	M. Hamidova	Shukur Xolmirzayev nasrida badiiy-uslubiy yondashuvlar va milliy an’analar uyg’unligi	356



60	S. Madirimova	Avaz O'tar – ma'rifatparvar shoir	360
61	Z.Namozova	Nafas Shodmonov dramalarining adabiy manbalari	369
62	M. Abdullayeva	Shoir Hayratiy she'riyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining poetik talqini	373
63	M. Matyakubova	Xorazm jadid adabiyotida Muhammad Rahimxon II Feruzning tutgan o'rni	378
64	R. Tojimatov	Said Ahmad hajviyotiga ustozlarning ta'siri	383
65	A. Usmonov	O'zbek tili hajviy matnlarining janr jihatidan turlari	386
66	A. Zaripov	Abdulla Oripov she'riyatida lirik kayfiyat	389
67	A. Abdullakhojaev	Ibrat's "Jome ul-khutut" as a crucial source in national printing	395
68	O. To'rayev	Yoshlarda ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishda jadid adabiyotining ta'siri	405
69	N. Murodillayev	O'zbek she'riyatida davr voqeligining badiiy talqini (jadid she'riyati misolida)	407
70	D. Umorova	XIX-XX asr Xorazm jadidchiligining respublika olimlari tomonidan o'rganilganlik darajasi	416
71	Z. Nurmatullayeva	Jadid adabiyoti manbalarining genezisi manbashunos olim Begali Qosimov tadqiqotlari misolida	419
72	D. Shomurodova	Jadidlar ijodida payg'ambarlar obrazi	427

3-SHU'BA. MATNNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH MUAMMOLARI

73	B.M.Baxriddinova, X.M.Baxriddinova	Ijodiy matn yaratishda tinish belgilarining o'rni	432
74	T. Jumayev	Umar Boqiy asarlari matnining qiyosiy-lisoniy talqini xususida	439
75	D. Xoshimova	"Boburnoma" matnining lingvistik xususiyatlari	447
76	F. Xamrayev	O'zbek tili tarixiy so'zlarining zamonaviy o'zlashmalarni milliyashtirishdagi o'rni	450
77	O. Yusupova	Ingliz ertaklari matnlarida ijobiy va salbiy semaga ega frazeologik birliklarning lingvistik tadqiqi	456
78	Y. Nabijanov	Matnlarni o'rganish va tahlil qilishda grafik organayzerlardan foydalanishning innovatsion usullari	460
79	M. Obilov	Structural-semantic study of subjectivity In academic discourse.	465
80	M. Qurbonova	Jadid adabiyoti manbalarida okkazional birliklarning o'ziga xos vazifasi	469
81	G. Xusanova, M. Azamjonova	Yangi O'zbekistonda o'zbek adabiy tilining rivojlanish tendensiyalari: muammolar, yechimlar, tavsiyalar	473
82	U. Usmonova	Tilshunoslikda matn tadqiqiga zamonaviy yondashuvlar	476
83	F. Xazratqulova	Floral figurative phraseologisms in english and uzbek: a cognitive-semantic typology	481
84	U. Usmonova	A comparative linguistic study of phraseological units in uzbek, russian, and english	489
85	G. Rasulova, B. Nasirdinov	Robototexnika sohasiga oid terminlarning leksik-semantik xususiyatlari va tarjima muammolari	493
86	B. Axtamova	Sadriddin Ayniy asarlarida gender nutq xususiyatlari va ularning sotsiopragmatik tahlili	496
87	F. Masharipova	Erkin Samandar nasriy asarlarida ritorik so'roq gaplarning badiiy-estetik vazifalari	500
88	M. Mannonova	Kulolchilik terminlarining leksik tahlili	505
89	M. Azizov	"Tarixi Farg'ona" asaridagi o'zlashma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari	509



90	S. Ashurova	Matnning lingvistik xususiyatlarida terminologik muammolar	512
91	M. Mirzaabdullayeva	Badiiy matnda konnotativ ma'no va uning stilistik vazifalari	515
92	M. Тиллаева, Н. Джураева	Роль морфологии в интерпретации текста	518
93	A. Karimova	Matnning lingvistik xususiyatlarini o'rganishda scamper texnikasidan foydalanish	523
94	H. Axunbabaeva	Анализ художественного текста в рамках лингвистической прагматики	527
95	J. Yangiboyeva	"Devon-u lug'otit turk" asarining lingvistik asosda o'rganilishi	536
96	R. Hojiqurbonova	O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" asarida o'xshatishlarning qo'llanishi	541
97	S. Usmonova	Fitratning ilmiy terminlar yaratishda okkazional birliklardan foydalanish mahorati	543
98	F. Safarova	Faxriddin Ali Safiy ijodiy merosi va uning "Latoyif ut-tavoyif" asari matni to'g'risida	546
99	D. Noraliyeva	"Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida uslubiy vositalarning o'rni	551
100	B.Siddiqov	"Arba'in"dagi arabcha matnlarning transliteratsiya va transkripsiyasiga doir	556



Mashrab gʻazallariga bogʻlangan muxammaslar shoironing badiiiy mahoratini belgilashda, xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etdi. Dilorom Ergasheva sheʼrlari, ayniqsa, inson qalbi va ruhini davolaydi, Haq va Haqiqat maqomlariga yuksaltiradi. Shoira soʻz bilan ifodalab boʻlmaydigan tuygʻularni, faqat koʻngil koʻzi bilan ilgʻab, qalb sezgisi orqali his qilish mumkin boʻlgan kechinmalarni sanʼatkorona ifodalaydi, qalam kuchi bilan oʻziga xos badiiy kashfiyotlar yaratadi. Bu kashfiyotlar sizni hayratda qoldiradi. Bu hayrat uning gʻazal va muxammaslaridagi mazmuniy va shakliy goʻzalliklarni ilgʻashga, his qilishgachorlaydi. Shoironing mumtoz adabiyotimizning goʻzal anʼanalarini oʻziga xos tarzda davom ettiruvchi latif va jozibador sheʼriyatini atroflicha tadqiq etish galdagi vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilorom. Mashrabona. – Namangan: “Namangan” nashriyoti, 2004.
2. Dilorom. Hech nima diydorga etmaydi. – Fargʻona: “Fargʻona” nashriyoti, 2007.
3. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999.

DEVON IMLOYI BUXORIY: ADABIY VA MA'NAVIY MEROS

Nazzora Bekova,

BuxDU, f.f.d.(DSc), professor

Zebiniso Komilova, BuxDU, magistranti

Annotatsiya Mazkur maqolada Sharq mumtoz adabiyotining muhim namunalaridan biri boʻlgan “Devon Imloyi Buxoriy” asarining mazmuni, adabiy xususiyatlari va maʼnaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Asarda ilgari surilgan diniy-axloqiy va falsafiy gʻoyalar, ilm va maʼrifatning qadri, tasavvufiy qarashlar hamda ularning bugungi kun uchun dolzarbligi yoritiladi. Shuningdek, asarning yosh avlod tarbiyasidagi oʻrni va adabiyotshunoslikdagi ilmiy ahamiyati ham alohida koʻrib chiqiladi.

Kalit soʻzlar: *Devon Imloyi Buxoriy, mumtoz adabiyot, tasavvuf, ilm, maʼnaviyat, axloq, badiiy sanʼat, Sharqshunoslik.*

Oʻzbekiston mumtoz adabiy merosi Sharq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Unda diniy, axloqiy va falsafiy gʻoyalar mujassam boʻlib, asrlar

davomida xalq ma'naviyatini shakllantirishga xizmat qilib kelgan. Shunday bebaho durdonalardan biri bu — “Devon Imloyi Buxoriy”dir. Mazkur asar Alhoda nashriyoti tomonidan chop etilgan bo‘lib, uning tayyorlanishida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti mutaxassislari bevosita ishtirok etishgan. Qo‘lyozmalar asosida tiklangan ushbu nashr nafaqat adabiyotshunoslar, balki tarixchi va ma'naviyatshunoslar uchun ham qimmatli manba hisoblanadi. Bugungi kunda milliy merosni o‘rganish, uni yoshlarga yetkazish va adabiyotning tarbiyaviy ahamiyatini kengaytirish dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtayi nazardan “Devon Imloyi Buxoriy”ni tadqiq etish nafaqat tarixiy zarurat, balki bugungi kun uchun ham muhim ilmiy vazifadir.

Asarning mazmuni “Devon Imloyi Buxoriy” tarkibida diniy-ma'rifiy, tasavvufiy, axloqiy va falsafiy ruhdagi ko‘plab she'rlar jamlangan. Asarda Allohga muhabbat, ilmning ahamiyati, sabr-toqat, halollik, dunyoga haddan tashqari berilmaslik kabi mavzular keng yoritiladi. Bunga misol tariqasida quyidagi misrani keltirishimiz mumkin.

Forscha:

Ey mah-e hosn, posht-e nazar kon be su-ye ma
Zahed shekaste bad do dastat kea z hasad
Bostan-e ons, banda mag'ir az gonah
'Efvat makon, made be nowbahar sabu-ye ma

Ma'nosi:

Ey go'zallik oyidek yuzli, biz tomonga nigoh tashla,
Ey zohid, hasad sabab qo'llarin sinib kestin.
Ey mehr bog'i, guhoh uchun qo'limni ushlama,
Poklik qilmaysanmi, bahaorning qadahini bizga bermaysanmi.

Ushbu misrada shoir guhoh qilishdan qaytish, hasad qilmaslik, doimo pok bo'lish kabi fazilatlarni ilgari surgan. Shoirning asosiy maqsadi insonni ruhiy poklanishga, komillikka va ma'naviy yuksalishga chorlashdir. She'rlarda dunyo boyliklari va mol-mulkning o'tkinchiligiga urg'u berilib, haqiqiy baxt faqat ilm, diyonat va ruhiy tozalikda ekanligi uqtiriladi. Asarda ilmga berilgan yuksak e'tibor



ham alohida o‘rin tutadi. Shoir ilmni insonning qalb ko‘zgusi deb biladi. Ilm orqali inson nafaqat dunyoviy, balki oxirat saodatiga ham erisha oladi. Shu bois devon o‘z davrida ilm ahliga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Adabiy xususiyatlari “Devon Imloyi Buxoriy” o‘z davrining yuksak badiiy namunalaridan biridir. She‘rlarda tashbeh, istiora, tajnis, tanosib kabi badiiy san‘atlar keng qo‘llangan. Masalan:

Forscha

Doshman bovad kasi ke namayad dava-yi ma,
 Juz‘ishqi dust, kist shavad rahnama-yi ma?
 Az ghayr khar sar ke guzarad ba pa-yi ma?
 Ghayr az riza-yi dust che bashad riza-yi ma?
 Bashad hazar martaba kamtar baqa-yi ma,
 Az may shavad gushada dil-i bi-nava-yi ma.

Ma‘nosi:

Bizning dardimizga davo ko‘rsatgan kishi-dushman bo‘lur,
 Do‘stning ishqidan boshqa kim bizga yo‘l ko‘rsatadi?
 Begonadan tikan va ranjdan boshqa narsa oyog‘imiz ostiga
 tusharmikan?

Do‘stning rizosidan boshqa narsa biz uchun rozi bo‘lishi mumkinmi?
 Bizning umrimiz ming marotaba oz bo‘lsa ham,
 May(ishq sharobi) bilan g‘amgin ko‘nglimiz ochilib, kengayadi.

Misralarda ko‘pincha Qur‘on oyatlari va hadislarning ma‘nolari badiiy tarzda ifodalangan bo‘lib, ular asarga diniy-falsafiy ruh bag‘ishlaydi. Shoirning ijodi Alisher Navoiy, Hofiz, Sa‘diy kabi mumtoz shoirlarning an‘analari bilan uyg‘unlashib ketadi. Ammo u bu g‘oyalarni o‘z davrining ijtimoiy hayotiga moslashtirib, milliy adabiy muhitda qayta talqin qilgan. Devonning yana bir o‘ziga xos jihati uning tilida namoyon bo‘ladi. Fors-tojik adabiyotiga mansub bo‘lishiga qaramay, unda turkiy xalqlarga xos iboralar, ma‘naviy qadriyatlar ham sezilib turadi. Bu esa asarning keng kitobxonlar ommasiga yaqinlashuviga xizmat qilgan.



Ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyati. Bugungi kunda “Devon Imloyi Buxoriy”ni o'rganish yoshlar tarbiyasi uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki unda ilgari surilgan g'oyalar — halollik, sabr-toqat, ilmga chanqoqlik, dunyo lazzatlariga berilmaslik va Allohga muhabbat — har bir inson uchun umumbashariy qadriyat hisoblanadi. Asar yoshlarni milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda, ularni vatanparvar, diyonatli va komil inson sifatida shakllantirishda katta o'rin tutadi. Devon nafaqat adabiy meros, balki ma'naviy-ma'rifiy qo'llanma vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, globallashuv sharoitida yoshlarning ongini turli yot g'oyalardan asrashda, ularni milliy o'zlik va madaniyatga sodiq etib tarbiyalashda bunday mumtoz asarlarning o'rni beqiyosdir.

“Devon Imloyi Buxoriy” Sharq mumtoz adabiyotining bebaho yodgorliklaridan biridir. U o'zida diniy, axloqiy va falsafiy g'oyalarni mujassam etib, nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, “Devon Imloyi Buxoriy” milliy adabiy merosimizning yorqin namunasi bo'lib, u nafaqat o'tmishni anglash, balki bugungi va kelajak avlodni ma'naviy tarbiyalashda ham beqiyos ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Devon Imloyi Buxoriy. – Eron: Alhoda nashriyoti, yil.
2. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari fondi.
3. Karimov, I. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Sharq mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2012.

**ALISHER NAVOIY “XAMSA”SINING KESHLIK KOTIB TOMONIDAN
KO'CHIRILGAN QO'LYOZMA NUSXASI**

Ahadjon Muhammadiyev, ShDPI, f.f.n., professor v.b.

A'loxon Mahmudov, ShDPI, magistrant

Annotatsiya. Maqola Alisher Navoiyning “Xamsa” dostoni qo'lyozma nusxalarining tarixi, xattotlik san'ati va ularning o'zbek mumtoz adabiyotidagi o'rni haqida. Unda Sharq xattotligining rivoji, arab yozuvi uslublari (muhaqqaq, suls,